

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.09.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XUSHVAQTOVA UMIT-OY

**ZULFIYA QUROLBOY QIZI ASARLARINING LINGVOPOETIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Xushvaqтова Умит-ой

Zulfiya Qurolboy qizi asarlarining lingvopoetik xususiyatlari 3

Хушвактова Умит-ой

Лингвопоэтические особенности произведений Зульфии Куролбой кызы 21

Xushvaktova Umit-oy

Linguopoetic features of the works of Zulfiya Kurolboy kizi 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.09.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XUSHVAQTOVA UMIT-OY

**ZULFIYA QUROLBOY QIZI ASARLARINING LINGVOPOETIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil5227 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Shahrisabz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xamrayeva Xulkar Xamidullaevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponenlar:

Karimov Suyun Amirovich
filologiya fanlari doktori, professor

Saidov Yoqub Siddiqovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.09.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ kuni soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2 – ARM binosi, 3-qavat Faollar zali. Tel.: (8366) 239-18-92; faks: (0366) 99366 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: 239-11-40; 239-18-92 faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

J.D. Eltazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

D.D. Marupova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

X.Z. Xayrullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida badiiy matn va badiiy diskurs masalalarini o'rganishda lingvopoetik, lingvopragmatik hamda lingvokognitiv tahlil tamoyillari yetakchilik qilmoqda. Badiiy matn til birliklarining nafaqat estetik vazifasini, balki muallif tafakkuri, milliy ong va madaniy tajribaning konseptual ifodasini namoyon etuvchi murakkab semantik-kognitiv tizim sifatida qaralmoqda. Badiiy diskurs esa inson tafakkuri bilan ijtimoiy-madaniy borliq o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ochib beruvchi muhim lisoniy hodisa sifatida tilshunoslik markazidan o'rin egallamoqda. Shu sababli iste'dodli ijodkorlar asarlari tilining struktur-semantik, lingvopoyetik va funksional xususiyatlarini lingvokognitiv va lingvopoyetik aspektlarda tahlil qilish orqali til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik masalalarini antroposentrik paradigma asosida yoritish dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida lingvopoetik tahlil doirasida badiiy matn tilining estetik, semantik va kognitiv imkoniyatlarini aniqlash, muallif individual uslubining til birliklari orqali voqelanish mexanizmlarini tadqiq etish muhim ilmiy vazifalar sifatida qaralmoqda. Keyingi yillarda lingvopoetik tadqiqotlar antroposentrik va kognitiv paradigmalariga tayanib, til hodisalarini inson tafakkuri, nutq faoliyati hamda ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog'liq holda tahlil etishga yo'naltirilmoqda. Natijada badiiy matn tahlilida psixolingvistik, sotsiolingvistik, pragmalingvistik va lingvomadaniy aspektlarga asoslangan yondashuvlar jadal rivojlanib, badiiy diskursning mazmuniy, funksional va kommunikativ xususiyatlarini chuqurroq ochib berish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda tilshunoslik sohasida ham yangi yondashuvlarga asoslangan mezonlarga mos ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda ma'naviy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan tub islohotlar samaradorligini oshirish zarurati mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Zero, "...Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak"¹. Bu esa badiiy matn tili, undagi estetik va ma'naviy mazmunni zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida tadqiq etishni dolzarb vazifaga aylantiradi. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda o'zbek badiiy diskursida lingvistik va ekstralingvistik omillarning o'zaro uyg'un holda voqelanishi, badiiy tasvirni ta'minlashdagi o'rnini antroposentrik tamoyillarga asoslangan zamonaviy nazariyalar doirasida o'rganilishi mavjud bo'lgan masalalarning hal etilishiga zamin yaratadi. Shulardan kelib chiqib, badiiy matn lingvopoetikasi, muallif individual uslubi va uning til birliklaridan foydalanish mahoratini zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida tadqiq etish tilshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son—"Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni. <http://lex.uz/docs/4561730/>.

to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Til birliklarining nasrdagi lingvopoetik imkoniyatlarini ilmiy muammo sifatida Yevropa va rus tilshunosligida G.O.Vinokur, L.V.Sherba, T.E.Lessing, S.Saporta, V.M.Jirmunskiy, A.A.Potebnya, B.Larin, E.Koseriu, M.M.Baxtin, M.P.Brandes, M.I.Kojina kabi olimlar turli nazariy-metodologik yondashuvlar asosida o‘rganishgan².

O‘zbek tilshunosligida N.Mahmudov, S.Karimov, M.Yoqubbekova, M.Yo‘ldoshev, G.Muhammadjonova, M.Qosimova, L.Jalolova, D.Shadiyeva, S.Maksumova, A.Shofqorov, D.Andaniyazova, Sh.Toshxo‘jayeva³ kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida lingvopoetika, badiiy matn tahlili va til-madaniyat munosabatlariga doir masalalar muayyan tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqqan holda yoritilgan.

² Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – Москва: Высшая школа, 1991. – С. 45-47.; Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Ленинград: Наука, 1974. – С. 32-35.; Lessing T.E. Sprache und Sein. – München, 1925. – S. 56-60.; Saporta S. Psycholinguistics: A Book of Readings. – New York, 1961. – P. 112-115.; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977. – С. 78-82.; Потебня А.А. Мысль и язык. – Москва: Лабиринт, 1999. – С. 101-105.; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Ленинград: Наука, 1974. – С. 64-68.; Coseriu E. Textlinguistik: Eine Einführung. – Tübingen, 1980. – S. 90-94.; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1979. – С. 12-18.; Brandes M.P. Stilistik der deutschen Sprache. – Leipzig, 1983. – S. 120-125.; Кожина М.И. Стилистика русского языка. – Москва: Просвещение, 1993. – С. 55-60.

³ Махмудов Н. Ойбек насридаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985, №6. – Б. 48-50. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. Филол. фан. докт. дисс. ... – Тошкент, 1994. – 250 б.; Ёкуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 27 б.; Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлил асослари. – Тошкент, 2007. – 180 б.; Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Монография. – Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ. – 2019. – 256 б.; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 25 б.; Қосимова М. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 150 б.; Джалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.; Шадиёва Д.Ш. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 140 б.; Максумова С. Э.Воҳидов асарларида коннотавликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 26 б.; Шофқоров А. Миртемир шеъриятида такрорнинг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 28 б.; Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 52 б.; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2017. – 50 б.

Zulfiya Qurolboy qizi asarlarining poetik xususiyatlari, adibaning tasvir uslubidagi mahorati va badiiy-estetik qarashlari asosan adabiyotshunoslik aspektida tadqiq etilgan. Jumladan U.Normatov, Q.Yoʻldoshev, N.Jumaxoʻja, X.Doʻstmuhammad, I.Yoqubov, K.Egamberdiyeva kabi adabiyotshunoslar maqolalari va ilmiy ishlanmalarida yozuvchi ijodining badiiy-estetik qimmati, ruhiy-psixologik tasvir imkoniyatlari va individual mahorati haqida muayyan darajada kuzatishlar qilingan⁴. Shu bilan birga, F.Murtazayeva hamda D.Abdullayeva dissertatsiyalarida Zulfiya Qurolboy qizi ijodi rus va arab ayol ijodkorlari bilan qiyosiy aspektda oʻrganilgan⁵. Biroq yozuvchi asarlarining muvaffaqiyatini taʼminlovchi asosiy omillardan biri boʻlgan til xususiyatlari, soʻz tanlash va undan foydalanish mahorati, shuningdek, tasvirlash yoʻsinining lingvopoetik jihatlarini hozirgacha maxsus va izchil tadqiq etilmagan. Mazkur holat Zulfiya Qurolboy qizi ijodini lingvopoetik aspektida yaxlit tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Tadqiqot Shahrisabz davlat pedagogika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari muvofiq “Oʻzbek tilshunosligining dolzarb muammolari” mavzusidagi istiqbolli rejasi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi yozuvchi uslubining individualligi va voqelikni tasvirlash mahoratini belgilashda Zulfiya Qurolboy qizi nasriy asarlari tilining badiiyatini taʼminlovchi lisoniy vositalarning lingvopoetik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oʻzbek tilshunosligida badiiy asar tilining oʻrganilish holatini baholash, mazkur tadqiqotlarni lingvopoyetik yondashuv doirasida tizimlashtirish hamda mustaqillik davri nasri, jumladan, ayol ijodkorlar nasrining lisoniy birliklardan foydalanish mahoratini aniqlash;

Zulfiya Qurolboy qizining nasriy asarlarida soʻz tanlash, badiiy tasvir va ifoda vositalarini qoʻllashdagi oʻziga xosliklarning lingvistik va badiiy-estetik asoslarini yoritib berish;

adiba asarlari tilining badiiyligini taʼminlovchi badiiy tasvir, ifoda hamda paralingvistik vositalarning lingvopoyetik va funksional xususiyatlarini tadqiq etish, ularning kommunikativ-estetik vazifasini aniqlash;

Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida olamning badiiy tasviri, inson obrazi, xususan, ayollar ruhiyati va xarakterining badiiy talqinida namoyon boʻluvchi badiiy diskursning kognitiv jihatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub nasriy asarlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Zulfiya Qurolboy qizi badiiy asarlarida til birliklarining emotsional-ekspressiv va obrazlilikni yuzaga keltiruvchi

⁴ Normatov U. Qalbdagi benazir ziyo // Yoshlik, №5, 2010. – B. 31-35.; Egamberdiyeva K. Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida oʻzbek ayoli ruhiyati tasviri // Oʻzbekistonda xorijiy tillar, 2022. № 5 (46). – B.161-173.; Yoqubov I. Qismat va munosabat. Monografiya. –Toshkent: Nurafshon business, 2022. – 132 b.

⁵ Murtazayeva F.R. Hozirgi “ayollar nasri” ning badiiy oʻziga xosligi (Viktoriya Tokaryeva va Zulfiya Qurolboy qizi asarlari misolida); Filol. fan. boʻyicha fals. dokt. (PhD) diss. ... avtoref. – Buxoro, 2021. – 52 b.; Abdullayeva D.S. Zamonaviy arab va oʻzbek hikoyalarida badiiy psixologizm (Gʻada as-Samman va Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari misolida); Filol. fan. boʻyicha fals. dokt. (PhD) diss. ... avtoref. – Toshkent, 2022. – 54 b.

xususiyatlari, shuningdek, badiiy matnda lingvistik vositalar orqali muallif individual uslubining voqelanish jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, qiyoslash, zidlash, komponent va kontekstual tahlil, semantik-stilistik, lingvopoetik tahlil kabi usullardan fodalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hozirgi zamon o'zbek nasrining zabardast ijodkorlaridan biri bo'lgan Zulfiya Qurolboy qizi leksik birliklar, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi, milliy mentalitetiga xos qabariq tasvirlarni ta'minlovchi milliy-madaniy semalardan foydalanishi kabi individual o'ziga xos uslubi, so'z tanlash mahoratining lingvopoetik asoslari ochib berilgan;

Zulfiya Qurolboy qizi o'z asarlarida turli xil leksik vositalar – *shevaga xos so'zlar, varvarizm, vulgarizm, disfemizm, frazeologizmdan* samarali foydalanib, inson ruhiyatining jamiyat, ijtimoiy muhit bilan bog'liq jihatlari rang-barang okkazional ifodalar orqali dalillangan;

ijodkor milliy til vositalarini ongli va maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish, qayta semantizatsiyalash va funksional yuklanishini kengaytirishi natijasida badiiy matndagi til hodisalari nafaqat estetik vosita, balki muallifning individual ijodiy konsepsiyasi va milliy tafakkurining lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo'lgan;

Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida milliy koloritini ta'minlovchi *etnografizm, marosim va urf-odatlariga xos madaniy til birliklari* o'zbek xalqining ma'naviy olami, milliy ongi, o'ziga xos jihatlari va qadriyatlarini namoyon etishi, voqelikni obrazli va emotsional jihatdan ta'sirchan ifodalashga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

badiiy diskursning ekspressiv-psixologik xususiyatlarini tavsiflash tilshunoslik, lingvopoetika va sotsiolingvistika fanlarini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishi va zamonaviy konsepsiyalar asosidagi yangicha ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qilishi aniqlangan;

lingvopoetik tadqiqotlar doirasi qamrovining kengayishi til va madaniyat, ijtimoiy kontekst va insonning psixologik jihatlari o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tushunishga imkon berishi, bunday yondashuvlar tilshunoslikning nazariy jihatlarni boyitish bilan birga, muayyan ijodkorning individual o'ziga xos uslubi, so'z tanlash mahoratining lingvopoetik va badiiy-estetik asoslarini kengroq ochib berishiga doir tadqiqot natijalari o'zbek tilshunosligida muhim ma'lumotlar bo'lib xizmat qilishi asoslangan;

Zulfiya Qurolboy qizi nasrining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish bo'yicha to'plangan nazariy va faktik materiallar, tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosa va umumlashmalar o'zbek tilshunosligi, xususan, lingvopoetika, nutq madaniyati, lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika fanlarini o'qitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslab berilgan;

badiiy diskurs aspektida nasriy asarlar badiiyatini ta'minlovchi lisoniy omillarning tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosalar o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, badiiy nutqqa oid nazariy va amaliy kurslarning tashkil etilishida manba bo'lishi, oliy ta'lim tizimi talabalarida nasriy asarlar tilini tahlil qilish malakasini shakllantirishda yordam berishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Keltirilgan ilmiy ma'lumotlarning ishonchli, fundamental ilmiy-metodik maxsus adabiyotlarga tayanilganligi, avval qo'lga kiritilgan nazariy manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalarining turli tahlil usullari yordamida aniqlanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, uning nazariy konsepsiyasiga mos kelishi tadqiqotning ishonchliligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati badiiy matnda til birliklarining lingvopoetik funksional xoslanishi, ularning obraz yaratish, estetik ta'sir va muallif individual uslubini shakllantirish jarayonida namoyon bo'lish mexanizmlarini anglashda, badiiy nutqda leksik, frazeologik, grammatik va sintaktik vositalarning o'zaro munosabatini aniqlash barobarida, semantik ko'chishlar, stilistik figuralar hamda badiiy diskursning nazariy jihatdan asoslab berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosalardan oliy ta'lim muassasalarining filologiya yo'nalishi hamda lingvistika mutaxassisliklari talabalariga "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Sotsiolingvistika", "Matn lingvistikasi" hamda "Lingvopoetik tahlil asoslari" fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zulfiya Qurolboy qizi nasrining lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

hozirgi zamon o'zbek nasrining zabardast ijodkorlaridan biri bo'lgan Zulfiya Qurolboy qizi leksik birliklar, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi, milliy mentalitetiga xos qabariq tasvirlarni ta'minlovchi milliy-madaniy semalardan foydalanishi kabi individual o'ziga xos uslubi, so'z tanlash mahoratining lingvopoetik asoslari ochib berilgan o'rinlardan 2021-2023-yillarda "Musika va san'at o'quv muassasalari uchun "Bolalar raqslari" fanidan interaktiv o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish" mavzusidagi F3-202003161-raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, "O'zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o'zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug'ati"ni yaratishda foydalanildi (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 24-yanvardagi 1/04-178-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur lug'atda raqs san'ati bilan bog'liq termin va nominativ birliklarning semantik, madaniy hamda ekspressiv xususiyatlarini aniq va tizimli yoritish, ularning badiiy-estetik mazmunini to'laqonli ochib berish imkoniyati kengaygan;

Zulfiya Qurolboy qizi o'z asarlarida turli xil leksik vositalar – *shevaga* xos so'zlar, *varvarizm*, *vulgarizm*, *disfemizm*, *frazeologizm*dan samarali foydalanib, inson ruhiyatining jamiyat, ijtimoiy muhit bilan bog'liq jihatlari rang-barang okkazional ifodalar orqali dalillangan o'rinlardan 2020-2021-yillarda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishda bag'ishlangan veb sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug'atlat) to'plamini yaratish" mavzusidagi IZ-2019081663 raqamli fundamental loyiha doirasida "O'zbek milliy raqs terminlarining qisqacha o'zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha izohli lug'ati"ni yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 24-yanvardagi 1/04-177-son

ma'lumotnomasi). Natijada milliy raqs san'atini targ'ib etishga yo'naltirilgan veb sayt va multimedia mahsulotlari mazmunini badiiy-estetik jihatdan boyitish, matnli va vizual kontentda milliylik, obrazlilik hamda ekspressivlikni ta'minlash, shuningdek, raqs san'ati bilan bog'liq madaniy axborotni zamonaviy kommunikativ shakllarda samarali ifodalash imkoniyatlari oshgan;

ijodkor milliy til vositalarini ongli va maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish, qayta semantizatsiyalash va funksional yuklanishini kengaytirishi natijasida badiiy matndagi til hodisalari nafaqat estetik vosita, balki muallifning individual ijodiy konsepsiyasi va milliy tafakkurining lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo'lgan xulosalardan 2023-2024 yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlari ssenariylarini yozishda foydalanildi va muallif bilan suhbatlar uyushtirildi (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2025-yil 24-yanvardagi 26-36-947-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur eshittirishlarning mazmundorligi oshgan;

Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida milliy koloritini ta'minlovchi *etnografizm, marosim va urf-odatlariga xos madaniy til birliklari* o'zbek xalqining ma'naviy olami, milliy ongi, o'ziga xos jihatlari va qadriyatlarini namoyon etishi, voqelikni obrazli va emotsional jihatdan ta'sirchan ifodalashga xizmat qilishi asoslangan o'rinlardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining xalqaro adabiy aloqalarni mustahkamlash, adabiy muloqot va targ'ibot tadbirlarida, davra suhbatlarida, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda qayd etildi (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 6-martdagi 01/03-116-son ma'lumotnomasi). Natijada zamonaviy o'zbek prozasining qardosh xalqlar adabiyotiga ta'sirini keng ko'lamda o'rganish bo'yicha adabiy hamkorlikning yanada kuchayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnalda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ushbu tadqiqot kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 127 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Badiiy asarlarning lingvistik tadqiqiga doir integratsion yondashuvlarning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan iborat. Bobning birinchi faslida *“Lingvopoetik tadqiqotlar genezisi va tadrijiy taraqqiyoti”* masalasi yoritilgan. Lingvopoetika umumfilologik yo‘nalish sifatida til va poetik shakllarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganuvchi sohadir. Uning asosiy vazifasi badiiy asarlarning til tizimini poetik jihatdan tahlil qilish va bu orqali muallifning maqsad va uslubini ochib berishdir. Tilshunoslikda lingvopoetikaning alohida umumfilologik fan sifatidagi konsepsiyasi V.V.Vinogradov, V.P.Grigorev, A.A.Lipgart, S.V.Serebryakova nomlari nomi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning tadqiqotlarida muammoning nazariy masalalari mukammallashdi. G‘arb tilshunos olimi J.Cullerning strukturalizm nuqtayi nazaridan adabiy matnlar tadqiqi lingvistika va adabiyotshunoslik o‘zaro aloqalarini chuqur tahlil qilishga asoslanadi.⁶ T.Todorov poetika nazariyasini rivojlantirib, badiiy matnning lingvistik va stilistik xususiyatlarini o‘rgangan. U lingvopoetik tahlil usul va tamoyillarini ishlab chiqib, badiiy asarning til birliklari orqali qanday estetik ta’sir yaratilishini ko‘rsatgan⁷. L.G.Babenko badiiy matnni lingvistik tahlil qilishning asosiy yondashuvlari sifatida quyidagilarni kiritadi: 1. Lingvotsentrik. 2. Matnga asoslangan. 3. Antropotsentrik (psixolingvistik, pragmatlingvistik, derivatsion, kommunikativ yo‘nalish, nutqshunoslik). 4.Kognitiv.⁸ Bunday yondashuvlar badiiy matnni chuqurroq va ko‘p qirrali tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligidagi dunyo tilshunosligi bilan erkin fikr almashuv jarayoni, yangi-yangi paradigmalarning vujudga kelishi bu sohada ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirib yubordi.

O‘zbek filolog olimlaridan Z.S.Isaqov lingvopoetika tushunchasi, uning paydo bo‘lish tarixi va ifodalanish xususiyatlarini o‘rgangan. Muallif o‘zbek filologiyasida badiiy asar tilini ilmiy asosda o‘rganishning boshlanishi Izzat Sulton va Ayyub G‘ulom nomlari bilan bog‘liqligi qayd etadi.⁹

M.Yo‘ldoshevning qator ishlarida badiiy matnni lingvopoetik tahlil etishning asosiy mezon va tamoyillari, strukturaviy jihatlari keng tadqiq qilinmoqda.¹⁰

Umuman olganda, lingvopoetika badiiy matnni o‘rganishda tizimli va yaxlit yondashuvni taklif etadi. U badiiy asarlarni o‘quvchi qalbida chuqurroq aks ettirish, uning estetik go‘zalligi va ma’naviy ahamiyatini ularning til xususiyatlari orqali anglashga imkon beradi.

Birinchi bobning ikkinchi faslida *“Lingvopoetikaning lingvokognitiv tahlil usullari”* yoritilgan. Lingvopoetik tahlil usuli materiallarni lingvistik manba nuqtayi nazaridan o‘rganib, estetik, semantik va pragmatik jihatlari ochib berishni maqsad qiladi. Lingvokognitiv tadqiq esa til birliklarining inson tafakkuri bilan aloqadorligini tahlil qilishi bilan tilshunoslikda yangi yo‘nalish hisoblanadi.

⁶ Jonathan Culler. *Structuralist Poetics: A Theory of Language and Literature*. – London: Routledge & Kegan Paul, 1975. – P. 114-130.

⁷ Tzvetan Todorov. *Theory of poetics*. – Ithaca: Cornell University Press, 1981. – P. 45-60.

⁸ Бабенко Л.Г., Василев И.Е., Казарин Ю.В. Лингвистический анализ художественного текста. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2000. – С. 16-25.

⁹ Isaqov Z.S. Lingvopoetikaning o‘rganilish tarixi. // 10th International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education, New York, USA, 28-yanvar 2023. – B. 199-204.

¹⁰ Yo‘ldoshev M. Ko‘rsatilgan manba.

Bu ikki uslubning uyg'unlashuvi matnning ma'no qatlamlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Keyingi yillarda qisqa vaqt ichida lingvopoetika yo'nalishining ko'lami kengayib, mohiyatan antropotsentrik tadqiqotlarning markaziy maydonlaridan biriga aylandi. Negaki, endi badiiy matnlar tahlili tilning faqat ekspressiv-estetik funksiyasi doirasidagina chegaralanib qolmay, balki til birliklarida inson omilining o'rni va roli nuqtayi nazaridan lirik qahramon va personajlarning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va ma'naviy qadriyatlarini ham hisobga olgan holda keng qamrovli o'rganish zarurati paydo bo'ldi. Shuning uchun lingvopoetikaning integratsion tabiati shakllanib, kognitiv lingvistika, psixolingvistika, sotsiopragmatika, lingvokulturologiya, gender tilshunoslik kabi qator yondosh sohalar bilan hamkorlik qila boshladi. Xususan, o'zbek tilshunosligida ham ana shunday tadqiqotlarning yuzaga kelayotganligi quvonarli holdir¹¹.

Kognitiv lingvistika badiiy matnda kechadigan ma'no va obrazlar ishtiroki fonida inson ongining namoyon bo'lishi, aqliy faoliyat bo'yicha chuqur tadqiq etadi. Psixolingvistika lingvopoetik kontekstda personajlarning nutqiy mahorati, hatti-harakati, hissiy kechinmalari va psixologik portretlari yuzasidan ilmiy tadqiqot olib boradi. Sotsiopragmatika fani matnda ijtimoiy munosabatlar, nutqiy strategiyalar va ular orqali anglashilgan ijtimoiy ishoralarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Lingvokulturologiya milliy madaniy me'roslar, urf-odatlar va qadriyatlarga doir unsurlarni matnlar tilida qanday ifodalanishini ochib beradi. Gender tilshunosligi esa, matnlarda erkak va ayol nutqining o'ziga xosliklarini, ijtimoiy-ma'naviy xulq-atvor modellari, nutq stereotiplari va shunga o'xshash boshqa tomonlarini yoritadi.

Bobning uchinchi fasli *"Badiiy diskurs lingvopoetik tadqiqot obyekti sifatida"* deb nomlangan. Badiiy diskurs zamonaviy adabiyotshunoslik va tilshunoslikning muhim tushunchalaridan biri bo'lib, u matnning mazmuni, shakli, konteksti va uning o'quvchi bilan aloqadorligi kabi jihatlarni qamrab oladi. Ushbu tushuncha matnni tilshunoslik, madaniyatshunoslik va psixologiya bilan bog'laydigan yaxlit ko'rinishdagi ilmiy yondashuvdir.

Badiiy diskurs inson tafakkurining murakkab va rang-barang namoyon bo'lishi bo'lib, u tilning badiiy xususiyatlari va muallifning ijodiy tasavvuri, shuningdek, o'quvchining qabul qilish jarayoni orqali shakllanadi. Lingvopoetika esa til va badiiy-estetik tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fan sifatida badiiy diskursni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Badiiy matnlar nafaqat tilning leksik, grammatik va stilistik jihatlarini aks ettiradi, balki hayotning in'ikosi sifatida insonni butun murakkabliklari bilan tasvirlaydi. Shu sababli, badiiy diskurs lingvopoetik tadqiqotlar uchun qimmatli manba hisoblanadi.

¹¹ Andaniyazova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi: filol. fanlari bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2017.; Muqimova Z.R. O'tkir Hoshimov asarlari tilining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari: filol. fanlari bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2020.; Qazaqova N.A. G'afur G'ulom nasriy asarlarining pragmalingvistik tadqiqi: filol. fanlari bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Farg'ona, 2019.; Odinayev B.I. O'zbek nutqiy muloqotining lingvopragmatik xususiyatlari (Erkin A'zam asarlari misolida): filol. fanlari bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2024.; Shukurov O.B. Badiiy diskurs kognitiv-pragmatik mundarijasini shakllantiruvchi lisoniy vositalar (ingliz va o'zbek tillari materialida): filol. fanlari bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023.; Narzullayeva D.S. Badiiy diskursda insonning ruhiy-emotsional holatini tasvirlashning lingvokognitiv xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida): filol. fanlari bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2024.

Badiiy diskursning lingvopoetik tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishi bir qator ilmiy yo'nalishlar bilan bog'liq. Birinchidan, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning an'anaviy usullarini uyg'unlashtirgan holda badiiy matnning ifoda yo'sini va badiiy-estetik qimmatini baravar tahlil qilish talab etiladi. Sotsiolingvistik aspekt yordamida esa matnning ijtimoiy dinamikasi, ya'ni unda turli ijtimoiy guruhlariga oid insonlarning hayoti, turmush tarzi, o'y-kechinmalari, ijtimoiy munosabatlar dinamikasi aks etganligi personajlar nutqi tahlili orqali qamrab olinadi. Badiiy diskursning ijtimoiy-psixologik ahamiyati shundaki, ijtimoiy-psixologik ta'sir vositasi sifatida insonlar o'rtasidagi muloqotni shakllantiradi. U turli madaniy va ijtimoiy muhitlarda insonning munosabatlarini hamda shaxsiy ongini shakllantirishga yordam beradi¹². Masalan, badiiy asarlarning tarbiyaviy roli shuning bilan izohlanadi. Shunday qilib, lingvopoetik tahlil badiiy matnning ma'no va mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. U matndagi so'z tanlash, ijodkorning leksik qatlami manbalaridan foydalanish mahorati, badiiy tasvir va ifoda vositalari negizida yashiringan ma'nolarning lisoniy asoslarini ochib beradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchiga asarning g'oyaviy mohiyatini to'liqroq tushunish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Zulfiya Qurolboy qizi asarlarining lingvopoetik ifoda imkoniyatlari**" deb nomlangan va 3 fasldan iborat. Birinchi faslda "*Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida badiiy tasvir va ifoda vositalarining lingvopoetik imkoniyatlari*" tadqiq qilingan. Zulfiya Qurolboy qizi nasriy asarlarida *takror*, *epitet*, *alliteratsiya* va *inversiya* singari badiiy tasvir vositalarining funksional qo'llanishi matnning struktur-semantik yaxlitligini ta'minlab, nasrga xos shakliy hamda mazmuniy yaxlitlikning izchil voqelanishiga xizmat qiladi. Bu vositalar orqali badiiy nutqning emotsional-ekspressiv xususiyati kuchayib, muallif uslubining individual jihatlari aniq namoyon bo'ladi.

Epitet – ko'chim asosidagi ekspressiv bo'yoqdor sifatlashning yuqori darajadagi ko'rinishidir. Tavsiflanayotgan narsa, tushuncha, voqea-hodisaning betakror, xarakterli belgisini ifodalay olsagina *epitet* sanaladi. An'anaga ko'ra, she'riy nutq jozibadorligini ta'minlashda epitetlar faol tasviriy ifoda vositasidir. Biroq, nasriy asarlarning tobora chuqurlashib borayotgan ifoda imkoniyatlari negizida epitetning ham o'ziga xos qirralari teranlashib bormoqda. Jumladan, Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ham muallif epitetlarini kuzatish mumkin:

Ko'ngliga qarayverib, bolani besoat qilib qo'ydingiz, ena! (Zulfiya Qurolboy qizi, "Yozsiz yil" hikoyasi)

Tahlilga tortilgan misollardagi *yuragini yeb bitirayozgan xavotir, besoat (bola), tirik arvohday, charchoq nigohlar, uvada bulutlar* birikmalaridagi individual tavsiflar muallif epitetlaridir.

Ramz (arabcha *imo*, *ishora*, *imlash*) – simvol; ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida *ko'chma* ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz mohiyatan *allegoriyaga* yaqin, undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanadi. Ramzning ma'nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo'lganda reallashadi.¹³

¹²Выготский Л.С. Мышление и речь. – 5-е изд., испр. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.

¹³ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 245.

Zulfiya Qurolboy qizining “Yomg‘irli yo‘lka” hikoyasi sarlavhadan tortib to hikoyaning ma’no-mazmunigacha ramziy-ma’joziy ko‘chimlar asosiga qurilgan. Avvalo, *yomg‘ir* detali ravon turmush va badastir hayot tarzining zil ketishi oqibatida ayolning ko‘z yoshlariga sabab bo‘lgan voqelikka ishoradir. Hikoyadagi doshqozonning yo‘qolishini ham shuning mantiqiy izohi deb hisoblash mumkin. Va nihoyat, uchinchi ramziylik ayolning og‘ir sumkani ko‘tarib, har kuni umid bilan yo‘l yurishi – bu uning ro‘zg‘orning og‘ir “yuk”ini orqalab, kun kechirayotganligining ramziy ifodasidir.

Bobning ikkinchi faslida “*Zulfiya Qurolboy qizining so‘z tanlash mahorati xususida*” fikr yuritilgan. Ijodkorning til birliklaridan o‘ziga xos tarzda foydalanishi, leksik, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubi ham yuzaga chiqadi. Lingvopoyetik tahlil jarayonida yozuvchining so‘z boyligi, til vositalaridan foydalanish usullari, til faktlari vositasida badiiy tasvir vositalarini qay tarzda shakllantirish mahoratini o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Toshoyna yonida tumba. Tumba ustida joynamoz. Chetlari kashtalangan, lekin chang bosgan... (“Boyvuchcha” hikoyasi)

Muallif joynamozning “chang bosgan”, ya’ni ishlatilmay turganligi orqali personajning ruhiy holatiga urg‘u beradi.

Buvgul xola eshik oldida mung‘ayib turdi birpas, so‘ng sekin iziga qaytdi. Oshxonada yolg‘iz o‘zi nomiga, istar-istamay tamaddi qilgan bo‘ldi, butun fikri-zikri o‘g‘lida bo‘lganidan nima yeb-ichganini ham bilmadi, alag‘da ko‘ngli sira tinchlik bermasdi... (“Yozsiz yil” hikoyasi)

Mazkur kontekstda *alag‘da* leksemasining qo‘llanishi alohida e’tiborga molik. O‘TILda ushbu birlikning “*notinch, bezovta*” ma’nolarini anglatishi qayd etilgan. Yozuvchi bu leksemani onaning ichki ruhiy holatini aniq va lo‘nda ifodalash maqsadida o‘rinli qo‘llagan bo‘lib, u qahramon kechinmalarining psixologik jihatlarini aks ettirgan. “*Alag‘da ko‘ngli sira tinchlik bermasdi*” jumlasida ushbu leksema obrazli va ekspressivlik ifodalab, onalik xavotirining uzluksiz va iztirobli holatini yorqin namoyon qiladi.

Ma’lumki, badiiy matnda yangicha ifoda usullarini topish, so‘z va iboralardan individual va maqsadga muvofiq foydalanish, emotsional jihatdan boy va jozibali jumlar hamda o‘rinli detallarni tanlash ijodkor oldida turgan eng murakkab vazifalardan biridir. Zulfiya Qurolboy qizi bu borada xalq jonli so‘zlashuv tilining imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanadi: “*Do‘xtir yaxshi gap aytmagan, – o‘ylardi ona. – Bechora bolamning enka-tinkasi qurib ketibdi. Do‘xtir ham **toza nokas** odam ekan-da.* (Zulfiya Qurolboy qizi, “Yozsiz yil” hikoyasi); “***Toza uxlabman**-ku, menga ne bo‘ldi?*” - deya g‘udranganicha qasabasini boshiga qo‘ndirib, choponini yo‘l-yo‘lakay yelkasiga ilgancha, tashqariga yo‘naldi. (Zulfiya Qurolboy qizi, “Yozsiz yil” hikoyasi)

“Yozsiz yil” hikoyasida *toza* leksemasi muallif nutqida alohida stilistik yuklama kasb etadi. Bizningcha, “rosa” ma’nosida qo‘llangan *toza* ravish vazifasida kelib, sifat ma’nosidan ajralgan holda omonim birlik sifatida namoyon bo‘ladi va asosan so‘zlashuv uslubiga xosdir. Yozuvchi ushbu leksemani sifatga, fe’lga hamda iboralarga nisbatan erkin qo‘llab, nutqning tabiiyligi va emotsional-ekspressivligini kuchaytiradi. Shuningdek, *toza* leksemasining Buvgul xola, Sobir va Mamatqul kabi personajlar nutqida baravar uchrashi asarda voqelik

kechayotgan makonga xos sheva unsurlarining badiiy matnga muvaffaqiyatli singdirilganidan dalolat beradi. Natijada hikoya tilida xalqona ohang, jonlilik va real hayotiylik ta'minlanib, personajlar nutqining individualligi yanada ravshanlashadi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli "*Inson tavsifi va o'zaro munosabatlarda paralingvistik vositalarning o'rni*" masalasiga qaratilgan. Tilshunoslikda nutqqa yondosh qo'llanib, fikrni ifodalashga yordam beradigan turli ekstralingvistik elementlar mavjud bo'lib, ular tilshunoslikda "*noverbal vositalar*", "*nolisoniy vositalar*", "*paralingvistik vositalar*" kabi atamalar bilan nomlanadi. M.Saidxonov esa "*nonutqiy vositalar*" atamasini ham qo'llaydi¹⁴. A.Hojiyev, D.Rustamovlar paralingvistik vositalar atamasini qo'llaydilar. A.Hojiyevning qarashlariga ko'ra, paralingvistika – tilshunoslikning o'zaro aloqa-aralashuvida imo-ishora, mimika, nutq vaziyati kabi omillarni o'rganuvchi sohasi.¹⁵ D.Rustamov paralingvistik vositalarning tarkibiga inson omili bilan bog'liq holatlardan tashqari ekstralingvistik vositalarni ham kiritib, keng qamrovda tasniflaydi.¹⁶

Paralingvistik vositalarning badiiy asarlarda qo'llanilishi personajlar muloqotining tabiiy va ishonarli tasvirini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali qahramonlarning psixofiziologik holati, ichki kechinmalari hamda nutqda bevosita ifodalanmaydigan ma'no qatlamlari badiiy talqinda yorqin namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, paralingvistik birliklar personajlar xarakteri, o'zaro munosabatlardagi subyektiv belgilar va ruhiy taranglikni ochib beruvchi samarali badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Zulfiya Qurolboy qizining "Yozsiz yil" hikoyasidan keltirilgan parchada Sobirning yerga qaraganicha onasining yonidan o'tib ketishi, *aftoda qiyofasi* va *o'zini karavotga tashlashi* uning ruhiy va jismoniy holatidagi og'irlikni ochib beradi. Yuzini yostiqa qattiq bosishi esa, bir tomondan, og'riq va alamni, ikkinchi tomondan esa, bu holatni onasidan yashirishga bo'lgan ichki ehtiyojni ifodalaydi. Buvgul xolaning *mung'ayib turdi* tarzida tasvirlanishi esa onaning o'g'li iztirobini ich-ichidan his etishi, biroq unga yordam bera olmayotganidan ruhiy ezilish holatini qabariq ifodalaydi. Yozuvchining badiiy mahorati shundaki, yerga qaraganicha, *aftoda qiyofasi*, *yuzini yostiqa qattiq bosdi*, *mung'ayib turdi* kabi paralingvistik ifodalar orqali ona va o'g'il o'rtasidagi murakkab ruhiy munosabatlar qisqa, lo'nda va yuqori darajada ta'sirchan tarzda ochib berilgan.

Umuman, munosabatlar taranglashgan vaziyatlarda noverbal muloqot vositalari, ya'ni qarashlar, imo-ishoralar va xatti-harakatlarning faollashuvi kuzatiladi. Bobning mazkur bo'limida ana shunday noverbal birliklarning badiiy diskursdagi funksional xususiyatlari lisoniy tahlillar asosida dalillanib, ularning lingvopoetik va psixologik ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida "**Badiiy diskursda lingvokognitiv omillar ta'siri**" masalasi uchta fasl kesimida tadqiq qilingan. Birinchi faslda "*Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida olamning badiiy tasviri voqelanishi masalasi*" yoritilgan.

¹⁴ Saidxonov M.M. O'zbek tilida ishoralarining verballashuvi va matniy xususiyatlari: filol.fanlari doktori (DSc) diss. ... avtoref. – Farg'ona, 2022. – B. 8.

¹⁵ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. –B.68.

¹⁶ Rustamov D.A. Muloqotning intralingvistik va ekstralingvistik omillari xamda zamonaviy konsepsiyalari: filol.fanlari doktori (DSc) diss. ... avtoref. – Andijon, 2021. – B. 28.

